

**R.Sadikova,**  
O'zbekiston xalqaro islom  
akademiyasi dotsenti

**Maftuna Baxshilloeva,**  
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi  
II bosqich talabasi

## YERDAN NUR TARALGAN ZAMIN – BUXORO

**H**amma zamonlarda ham yuksak taraqqiyot va ma'naviyat o'chog'i bo'lgan maskanlar turistlar e'tiborida bo'lgan. Haqiqatan ham sayohat hordiq chiqarishning eng maroqli turi hisoblanadi. Turizm imkoniyatlari mavjud mamlakatlarda iqtisodiyotning ko'plab tarmoqlari jadal taraqqiy etib, turizmdan kelayotgan daromad yalpi ichki mahsulotning 15-35 foizni tashkil etmoqda va turizm dunyodagi ko'pgina davlatlar iqtisodiyotining muhim daromad manbai hisoblanadi. Shu jihatdan O'zbekistonda ham mazkur sohaga e'tiborni kuchaytirish ustuvor

vazifalardan biri hisoblanadi. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev ushbu sohaga alohida e'tibor qaratmoqdalar. Turizmni rivojlantirish to'g'risida bir qancha qaror va farmoyishlar e'lon qilib, soha vakillari uchun vazifalar yuklab bermoqdalar. Shu bois, keyingi yillarda yurtimizda turizmni rivojlantirish samarali ishlar amalga oshirilishi natijasida yurtimizga xorijiy sayyohlar oqimi ham oshib bormoqda.

Turizm maqsadlari nuqtai nazaridan sayyohlar dam olish maqsadida, ziyorat maqsadlarida o'z sayohatlarini olib bormoqdalar. Ziyorat turizming rivojlanishida bizning mamlakatimizda yetarlicha ziyoratgohlarimiz, boy tariximiz va albatta o'zining beqiyos-takrorlanmas jozibasiga ega bo'lgan tarixiy obidalarimiz mavjud. Ziyorat turizmi bugungi kunda ikki xil ko'rinishda namoyon bo'lmoqda:

1. Diniy amalni ado etish maqsadida sayohat qilish.

2. Ma'naviy dunyoqarashni kengaytirish maqsadidagi sayohat. Bu avliyolar, mashhur shaxslar, davlat arboblari, shahid ketganlar va boshqalarni ziyorat qilishga qaratilgan sayohat.

Aynan ikkinchi turdagi ziyorat turizmi bizning mamlakatimizda keng tarqalgan. Deyarli barcha viloyatlarimizda ziyoratgoh maskanlarimiz mavjud. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, ajdodlarimizdan qolgan madaniy tarixiy merosga e'tibor kuchaydi, tarixiy yodgorliklar davlat nazorati ostiga olindi. Istiqlol yillarida Buxoro, Samarqand, Termiz, Xiva, Toshkent, Qo'qon, Shahrisabz kabi shaharlarda ulug' ajdodlarimizning yuksak iste'dodi

“Turizm iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri. Mavjud imkoniyatlardan samarali foydalangan holda, ushbu tarmoqni yanada takomillashtirish zarur, buni davrning o'zi taqozo etmoqd”.<sup>1</sup>

**Sh.Mirziyoyev**

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг мамлакатимизда туризмни изчил ривожлантириш истиқболлари, сайёҳлик объектиларидан самарали фойдаланиш, кўрсатилаётган хизмат турлари сифатини ошириш, юртимизга ташриф буюраётган сайёҳлар оқимини кўпайтириш борасида амалга оширилаётган ишлар таҳлиliga бағишланган 03.10.2017 йилдаги нутқи.

bilan bunyod etilgan obidalar o'zining haqiqiy qadr-qimmatini topdi, ularni ta'mirlash va asl qiyofasini tiklash davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bu masalalarda turizm obyektlari, ziyoratgoh maskanlarimizda sayyohlar uchun birmuncha imkoniyatlar yaratilishi yo'lga qo'yilgan. Boy tariximizda Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Abu Mansur al-Moturudiy, Ahmad al-Farg'oni, Burhoniddin al-Marg'inoniy, Mahmud az-Zamaxshariy kabi ulug' allomalarimizning ilm-ma'rifatda yuksak maqomga ega ekanliklarini butun dunyo olimlari tan olishadi. Ularning ilm rivojiga qo'shgan hissalari barcha sohalarda beqiyos o'rganiladi. Dunyoning turli burchaklaridan ulug'larimizning qabrlarini ziyorat qilish maqsadida har yili sayyohlar oqim bo'lib tashrif buyurishadi. Buxoro, Samarqand, Toshkent, Xorazm, Termiz, Shahrisabz singari shaharlarimizda ayniqsa, sayyohlar, ziyoratchilar tashrifi ko'p kuzatiladi. Buxoroda ziyorat maskanlarimiz talaygina va bular yillar davomida alohida diqqatga sazovor bo'lgan "Sharif shahar" nomini olgan. Buxoro tabarruk zamin. Azal-azaldan turli savdo yo'llari, madaniyat va sivilizatsiyalar chorrahasida joylashgan bu ko'hna go'shaning ohanrabosi, ko'rku tarovati insonni doimo o'ziga chorlab turadi. Buxoroga yiliga dunyoning turli nuqtalaridan minglab sayyohlar keladi. Ular bu sharif zaminda tarix bilan yuzlashadilar. Insoniyatning asrlar osha yashab kelayotgan ezgu udumlari, madaniyati va qadriyatlariga guvoh bo'lib, ularning mohiyatida yotgan umumbashariylik, boqiylik sirlarini anglashga urinadilar. Islom dini peshvolari, allomalari, aziz-avliyolari bosgan tuproqni, qo'llarining qaynoq tafti qolgan masjidi minoralarni ziyorat qilishga oshiqadilar.

Buxoro qadimdan tarix manbalariga asoslanadigan bo'lsak shahar ulug' maqomga ega bo'lgan va uning yuksalishi, ilmga nisbatan kuchlilik bo'lganligi uning boshqa shaharlardan ajralib turishini e'tirof etadi. Shaharning ulug'vorligini uni turli nomlar bilan atalib kelganligiga sababchi bo'lgan. Ayniqsa, Arab xalifaligi va somoniylar davrida shahar yuksalgan. Buxoroning nomlaridan "Foxira" ("Faxrli shahar") atamasi Narshaxiyning ta'rifi bo'yicha, islom dinining barqarorligi yo'lida qon to'kkan shahidlar sharafiga nisbat qilib berilgan. Shahar islomni targ'ib qilish va

qaror toptirish yo'lida ham muhim rol o'ynagan. Buxorodan islomiyat va hadis ilmlarining yirik targ'ibotchilari va tasnifchilari yetishib chiqqanlar, islom huquqshunosligining Buxoro maktabi tashkil toptirilgan. Buxoroning islom dini, musulmon axloqi, madaniyati va huquqshunosligining Sharqdagi kuchli markazlaridan biriga aylanishi tufayli unga IX asr boshlaridayoq "Qubbat ulislom" "Islom dinining gumbazi", degan sifat ham beriladi.

O'rta asrlarda Buxoro faqat islomiyatdagina emas, balki ilmu ma'rifat va madaniyat tarqatishda ham Movarounnahrda yirik markaz sifatida shuhrat topdi. Buxoroda turli asrlarda bino qilingan 200 ga yaqin madrasalarda o'z davrida minglab tolibi ilmlar diniy va dunyoviy bilimlarni olib, butun O'rta Osiyo bo'ylab ziyo tarqatganlar. Mirzo Ulug'bek tomonidan Buxoroda qurdirilgan madrasa darvozasida hatto, arabcha "Ilm olmakka intilish har bir muslim va muslima uchun qarzu farzdir", degan so'zlarning o'yib yozilishi, o'rta asrlarda, ayniqsa temuriylar davrida ilm va ma'rifatga bo'lgan ijobiy munosabatning yorqin dalilidir.

Buxoroga tashrif buyurgan har bir sayyoh o'zida iliqlikni, o'zgacha tasavvurni his qiladi, go'yoki ertaklar olami uzra kezib yuradi. Me'moriy yodgorliklardagi takrorlanmas naqshlar, qurilish arxitekturalari, gumbazlarning alohida ahamiyatga molik ekanligi ayniqsa, insonlarni o'ziga jalb etadi. Quyida Buxoroning turistlar eng ko'p tashrif buyuradigan qadamjolaridan sanab o'tmoqchimiz:

- 1) Buxoro arki
- 2) Labi hovuz majmuasi
- 3) Minorai Kalon
- 4) Ismoil Somoniy maqbarasi
- 5) Chorbakr
- 6) Abdullaxon timi
- 7) Ko'kaldosh madrasasi
- 8) Nodir devonbegi madrasasi
- 9) Nodir devonbegi xonaqohi
- 10) Ulug'bek madrasasi
- 11) Chashmai Ayub maqbarasi
- 12) Sitorai Mohi Xossa
- 13) Yetti pir ziyoratgohlari

Shu o'rinda yetti pir ziyoratgohlariga to'xtalib o'tmoq joiz. Yetti pir ziyoratgohlari quyidagi manzillarni o'z ichiga oladi:

- 1) Abduxoliq G'ijduvoni ziyoratgohi
- 2) Xo'ja Orif Revgariy ziyoratgohi

- 3) Xo'ja Mahmud Anjir Fag'naviy
- 4) Xo'ja Ali Romitaniy
- 5) Muhammad Boboyi Samosiy
- 6) Sayyid Amir Kulol
- 7) Bahouddin Naqshband

Ushbu me'moriy majmualar nafaqat yurtdoshlarimiz, balki butun dunyo musulmonlari uchun tabarruk maskanlar hisoblanadi. Manbalarda qayd etilishicha, yetti pirlar Payg'ambarimiz Muhammad sallollohu alayhi vassallamdan boshlangan "Oltin silsila"ning davomchilari sifatida qayd etilganlar. Ularning har birlarida ko'ngilni hirsdan poklash, halol mehnat qilib umr kechirish, Allohga jon-dildan bog'lanish g'oyalarini targ'ib qilganlar. Ushbu ulug' avliyolarning qilgan ishlari, asarlari zamonlar osha odamlarni tarbiyalab, ularga din-u diyonat, odob-axloq amallardan saboq berib kelmoqda. Bu yerlarda tashrif buyurgan sayyohlar pirlarning yashash tarzlari, ular faoliyat yuritgan yerlarida bo'lib, ularning zamonlarini hayolan tasavvur qilishga harakat qilishdi. Shu nuqtai nazaridan ham musulmonlar orasida yetti pir ziyoratiga bo'lgan ishtiyoq anchagina yuqori turadi.

Buxoroga 2018-yilda 2.5 milliondan, jumladan, 300 mingdan ortiq xorijiy sayyoh tashrif buyurdi. Shu munosabat bilan 2019-yilda Buxoroda 50 ga yaqin mehmonxonalar, 20 dan ortiq restoranlar, bir qator istirohat bog'lari, saylgohlar qurilishi yo'lga qo'yildi<sup>1</sup>. Bundan tashqari, 2019-yil 2123-fevral kunlarida Buxoroda Birinchi Xalqaro ziyorat turizm forumi bo'lib o'tdi. Unda o'nlab davlatlardan olimlar, ulamolar, turizm sohasi sarmoyadorlari, xalqaro tashkilotlar vakillari ishtirok etdilar. Ushbu forum doirasida "Ziyorat turizmi bo'yicha Buxoro Deklaratsiyasi" imzolandi. Unda barcha forum ishtirokchilari O'zbekistonning ziyorat turizm salohiyati yuqori ekanligini ta'kidladilar. Ziyorat turizmi xalqlar tinchlik va do'stlik munosabatlarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Buxoro ziyoratgohlari bilan bir qatorda me'moriy yodgorliklari, inshootlari bilan ham e'tibor markazida bo'lib kelgan. Buxoroning eng qadimiy qismi uning qal'asi – Ark hisoblanadi, bu yerda arxeologlar tomonidan miloddan avvalgi IV – III asrlarga tegishli bo'lgan ba'zi topilmalar borligi aniqlangan. Ark ichida podshoh va amirlarning,

amaldor va lashkarboshilarning uy-joylari, davlat devonlari, zarbxona, masjid, sardoba va boshqa bir qancha xonalar, binolar bo'lgan. Arkning old qismida Registon maydoni joylashgan. Ark devorlarining uzunligi 789,6 m. ni, hajmi esa 3.96 ga. ni tashkil qiladi. Afsonalarga ko'ra Arkning yaratilishiga o'zbek epik qahramoni Siyovush asos solgan. Mashhur X asr. muarrixi Muhammad Narshaxiyning ma'lumotlariga ko'ra ark juda uzoq muqqad vayrona holda bo'lgan bo'lib, faqatgina VII asrda Buxorxudot Bidun tomonidan qayta tiklangan. Shuningdek, Buxoro Arkining shimoliy sharqiy qismidan "Childuxtaron" maqbarasi o'rin olgan. Bugungi kunda ushbu qo'rg'onda Buxoro badiiy – memoriy muzey qo'riqxonasi faoliyat yuritadi va sayyohlar uchun ham turistik tashrif majmuasi bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

Buxoroning eng qadimiy yodgorliklaridan yana biri X asr boshlarida Somoniylar sulolasi tomonidan shaharning rivojlangan davrlari bo'lib hisoblanadigan yillarida bunyod etilgan Ismoil Somoniy maqbarasidir. Maqbara usti yarim sfera shaklidagi gumbaz bilan yopilgan kub shaklidagi binodir. Somoniylar maqbarasi O'rta Osiyoning me'morchiligida bizgacha yetib kelgan, pishiq g'ishtdan qurilgan birinchi bino bo'lib, undagi g'ishtlar ham qurilish uchun, ham bezatish uchun ishlatilgan. Binodagi naqshlar uyg'unligi bir-birini takrorlamas qilib, go'yoki to'r bilan o'ralingandek qilib qurilgan.

Labi Hovuz ("hovuz bo'yida", "havza bo'yida") — Buxoroning markaziy maydonlaridan biri bo'lmish me'moriy ansambl hisoblanib, XVI–XVII asrlarda yaratilgan. Maydoni Ko'kaldosh, Devon Begi madrasalari hamda Devon Begi honaqohi binolaridan tashkil topgan, atrofi Nodir begi hovuzi bilan birlashtirilgan. Ansambl o'lchami, taxminan, 150x200 metrdir. Hovuz bo'yida tashkil etilgan restoran, choyxonalarda o'tirib hordiq chiqargan har qanday inson o'zini ertaknamo olam uzra sayr qilib yurgandek his etadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Buxoroyi sharif haqida qancha fikr yuritsak ham, uning adog'iga yetib bo'lmaydi. Buning haqiqiy hissini tuyish uchun albatta ushbu shaharga sayohat uyushtirish, uzoq o'tmish tarixiga bir lahza nazar solish lozim, ana shunda Buxoroning haqiqiy mo'jizakor olam ekanligiga amin bo'lamiz.

<sup>1</sup> <http://xs.uz/uz/post/bukhoroning-sajyohlik-salohiyati>